

О`QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO`NALTIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING ROLI. IJTIMOIIY TARMOQLARNING IJOBIY VA SALBIY TA`SIRI

Roziqova Malika Olim qizi.

Qoraqalpoqiston Respublikasi Pedagoglarni yangi meodiklarga o`rgatish milliy markazi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedراسи o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarimiz ayniqsa o`smirlar orasida foydalanish ko`rsatkichi yuqorilab borayotgan ijtimoiy tarmoqlar va ularning ijobiy hamda salbiy jihatlari yoritilgan bo`lib salbiy ta`sirlarni oldini olishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so`zlar: Internet, ijtimoiy tarmoq , telegram, facebook, instagram, yolg`izlik, depressiya.

Bugungi kunda, kamdan-kam hollarda ijtimoiy tarmoqlardan birida ro'yxatdan o'tmagan hamda shaxsiy sahifasi bo'lmagan odamni uchratish mumkin. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilri soni kundan-kunga emas balki soatsayin oshib bormoqda. Ayniqsa yoshlar va o`smirlar orasida bu ko`rsatkich o`sib bormoqda. Aynan mana shu Internet va ijtimoiy tarmoq -resurslar orqali odamlar muloqot qilishga allaqachon o'rganib qolgan.

Ijtimoiy tarmoq – bu ijtimoiy ob`ektlar (odamlar yoki tashkilotlar) va ular o`rtasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) bo`lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilma. Oddiyroq qilib aytganda, bu o`zaro tanish odamlarning ma'lum bir guruhi bo'lib, bu erda odamning o'zi markaz, ijtimoiy tarmoqlarda do`stlar bir-biri bilan muloqot qilishga mo`ljallangan bo`lgan. 1991-yilda ingliz olimi Tim Berners-Li tufayli ommabop bo'lgan Internet ixtirosi muhim voqea bo'ldi. 1995 yilda Rendi Konrad zamonaviy ma'noda birinchi ijtimoiy tarmoq bo'lgan Classmates.comni yaratdi. **Sixdegrees.com, Friendster, LinkedIn, Twitter, Facebook, YouTube, WhatsApp Telegram va Instagram** tug`ilishi bilan Ijtimoiy tarmoqlar haqiqatan ham insoniyatga hashamatli sovg`a bo'ldi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlarga ta'siri haqida gap ketganda, ularning ijobiy va salbiy tomonlari ayniqsa muhimdir. Raqamli texnologiyalar bolalar farovonligini yaxshilash uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi, ayniqsa, ularning sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli va boshqalar tufayli zaif holatda bo'lganlar o`smirlar va yoshlar uchun.¹

¹ Положение детей в мире, 2017 год: дети в цифровом мире [Электронный ресурс]. Доклад ЮНИСЕФ

Bundan tashqari internet va turli ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish orqali hozirgi kunda o`quvchilar juda katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Qiziqishlaridan kelib chiqqan holda online til o`rganishlari, dasturlashni o`rganishlari va turli kasb sirlarini o`rganishlari mumkin.

Internet va itimoiy tarmoqlardan foydalanish ikki xil tomoni mavud bo`lib bular:

- Konstruktiv(ijobiy);
- Destruktiv (salbiy)

Dastavval ijtimoiy tarmoqlarning konstruktiv ya`ni ijobiy tomonlarini ko`rib chiqamiz:

- **Muloqot qilishda va izlashda qulaylik** . Ijtimoiy tarmoqlarda video, audio, surat, biror-bir shaxs yoki maslakdoshlarni topish juda oson.

- **Ma`lumot topish va almashishdagi qulay va osonlik**. Ijtimoiy tarmoqlarda biror mavzudagi axborotni yengillik bilan topish mumkin. Turli sohalarda maslahatlar olish, kerakli bilim va tasavvurlar hosil qilish imkoniga ega.

- **Shaxsiy rivojlanish, o`z-o`zini tarbiyalash, izlanish vositasi**. Ijtimoiy tarmoqlarning eng qamrovli , ahamiyatli jihatlaridan biri – ilm olish, kasb-hunar va ilm o`rganishdagi beqiyos yordamidir. Oddiy misol, qizlarimiz bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini Youtube tarmog`idagi kanallardan bemalol o`zlashtira oladi.

- **Biznes yuritishda beminnat yordamchi**. Bugun juda ko`p savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish bilan shug`ullanuvchi tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanyapti. Ba`zi ijtimoiy tarmoqlarda esa reklamani tanlangan yoki kerakli auditoriyaga yetkazish imkoni bor.

- **Turli ijtimoiy aksiyalar va yordamlar o`tkazish uchun qulaylik**. Ijtimoiy tarmoqlarda og`ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlar, yetim-yesirlar, nogironlar, bir so`z bilan aytganda moddiy-ma`naviy himoyaga muhtoj qatlamga yordamlar uyushtirish mumkin.

- **Ijodkorlar va boshqa soha vakillari uchun keng maydon**. Qalam ahlini ijodi tanitadi. Ba`zida boshlovchilar, hatto tajribali jurnalistlar uchun ham bosma yoki elektron nashrlardan “joy tegmay qolishi” mumkin.

Bundan tashqari ko`plab ijtimoiy tarmoqlar orqali biz hozirgi kunda endi rivojlanib kelayotgan va kelajakda juda ahamiyatli va zarur bo`lgan kasblar haqida ma`lumotga ega bo`lib bu kasblarni o`rganish imkoniyatlari ham mavjud. Online tarzda til o`rganish, IT sohasi, dasturlash kabi ko`plab kasblarni o`rganish imkoni mavjud. Bu juda qulay imkoniyat aslida. Biroq ba`zi hollarda bu imkoniyatlardan foydalanish o`rniga yoshlarimiz orasida ijtimoiy tarmoqlardan me`yoridan ortiq hamda maqsadsiz foydalanish natijasida ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo`lib qolish kabi salbiy oqibatlarini ham guvohi bo`lmoqdamiz.

Ijtimoiy media platformalarining o'ziga xos afzalliklari bo'lsa-da, ulardan tez-tez foydalanish odamlarni o'zlarini baxtsiz va yolg'iz his qilishlariga olib kelishi mumkin. Ushbu salbiy hissiy reaksiyalar nafaqat boshqalar bilan narsalarni baham ko'rishning ijtimoiy bosimi, balki ushbu saytlar targ'ib qiladigan moddiy narsalar va turmush tarzini taqqoslash natijasida yuzaga keladi. Instagram va Facebook`da

foydalanuvchilar saralangan tarkibni ko'radi: ularning qiziqishlari asosida foydalanuvchilarni jalb qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan reklama va postlar. Foydalanuvchilar boshqalarning o'zlarining ajoyib ishlari, ajoyib hamkorlari yoki go'zal uylari haqida e'lon qilayotganlarini ko'rishlari va natijada o'zlarini baxtli yoki ilhomlantirishlari mumkin. Boshqalar esa, bu rasmlarni ko'rib, hasad, tushkunlikka tushishi yoki hatto o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lishi mumkin, chunki ularning hayoti Facebook yoki Instagramda ko'rgandek "mukammal" emas. Ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soat yoki undan ko'proq vaqt o'tkazadigan bolalarning taxminan 27 foizi ruhiy salomatlik alomatlarini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoq saytlaridan ortiqcha foydalanish bolalar va yoshlarda ancha muammoli, chunki ularning miyasi va ijtimoiy ko'nikmalari hali ha rivojlanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yoshligidan ijtimoiy tarmoqlardan muntazam ravishda foydalanadigan o'smirlar ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatini sezilarli darajada susaytiradi. O'smirlik davrida Internetga qaramlikning rivojlanishi uchun muhim xavf omili hissiy va kognitiv sohaning buzilishi deb hisoblanishi mumkin. Ushbu kognitiv o'zgarishlar shaxsning ijtimoiy-psixologik munosabatlarini, uning "men-kontseptsiyasini" buzadi, deformatsiya qiladi.

O'smirlarni ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan himoya qilish yo'llarini ota-onalar, psixologlar, o'qituvchilar, bilishi zarur. Internetga qaramlik asosida qanday muammolar yotishini tahlil qiling, nima uchun odam "virtual olamga qochib ketadi" - bu oiladagi muammolar, ota-onalar bilan bog'liq muammolar, baxtsiz sevgi, o'ziga ishonchsizlik, ish yoki maktabdagi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Agar siz "zaif bo'g'in" ni topsangiz, uni yo'q qilish uchun hamma narsani qilishingiz kerak - insonning o'ziga bo'lgan hurmatini oshirish, oiladagi vaziyatni yaxshilashga harakat qilish, ishdagi, maktabdagi muammolarni bartaraf etish va hokazo.

Masalan, quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- Tarbiya jarayonida bolalarning qiziqishlari va xatti_harakat lariga e'tiborli bo'lish. O'smirning fikrlarini tinglash va uning «Men»ini hurmat qilib, muloqotda bo'lish.
- O'smir e'tiborini haqiqiy voqelikka qaratishga intilish. Kundalik hayotdagi voqelikda ularning faol ishtirokini ta'minlash.
- Haqiqiy hayotda do'stlar orttirishi va ular bilan muloqotiga e'tiborli bo'lish.
- Ular ustidan qat'iy nazorat qilmaslik va qattiqqo'l bo'lmaslik, taqiqlarni kamaytirish. Sababi «taqiqlangan meva shirin bo'ladi».
- O'smirning ichki kechinmalariga e'tiborli bo'lish, agar taqiqlar bo'lmasa, uning o'zi ham hech narsani sir tutmaydi, balki boshqalar bilan bo'lishishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. T.: 2010 y.
2. Д.В.Зотова, В.А.Розанов. Вестник Санкт-Петербургского университета. Психология. 2020. Т. 10. Вып. 2. С. 158–183.
3. Положение детей в мире, 2017 год: дети в цифровом мире [Электронный ресурс]. Доклад ЮНИСЕФ